

*Andijon Davlat pedagogika instituti*

*Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

***Mahmudov Zoirbek Tohirjon o'g'li***

***Annotatsiya:*** Ushbu maqolada “Jadidlar otasi” deya etirof etilgan, buyuk ma’rifatparvar, xalqparvar jadidbobomiz Mahmudxo’ja Behbudiy hayoti va ijodiy, jadidchilik faoliyati haqida ma’lumotlar keltiriladi. Ushbu maqola orqali Mahmudxo’ja Behbudiy oilaviy hayoti, jadidchilik harakatiga kirib kelishi, chet el mamlakatlariga sayohati, ko’plab maktab darslilari yaratgani, turli xil maqolalar orqali xalqni ozodlikka ma’rifatga chorlagani haqida bilib olishimiz mumkin.

***Kalit so'zlar:*** “Jadidlar otasi”, maktab-madrasa, yangi usul maktablari, darsliklar, “Samarqand” gazetasi, “Oyina” jurnali, Bexbudiya kutubxonasi, Turkiston muxtoriyati.

Umuman, biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o’rqnishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko’p o’rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko’p savollarga to’g’ri javob beramiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ’ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi.

**(Shavkat Mirziyoyev O’zbekiston Respublikasi Prezidenti<sup>1</sup>).**

Muhtaram Prezidentimiz tashabbuslari bilan XX asrda xalqimiz uchun o’z jonlarini ayamagan, xalqni dardi bilan yashagan jadid bobolarimizning hayot yo’llarini chuqur o’rganishimiz, ularning asarlarini hayotimizga tatbiq qilishimiz yo’lida juda ko’p islohatlar amalga oshirilmoqda. Jadid bobolarimiz hayotida bag’ishlangan hujjatli hamda badiiy filimlar yaratilmoqda, juda ko’plab kitoblar yozilmoqda. Ana shunday xalqparvar, ma’rifatparvar, “Jadidlar otasi” deya etirof

<sup>1</sup> Yoshlar Nashriyoti Uyi. T-2022-y. b-3.

[www.tadqiqotlar.uz](http://www.tadqiqotlar.uz)

etilgan jadid bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiydir. Mustaqillikka erishilgandan so'ng jadidlar faoliyatini o'rganishga qiziqish kuchayishi bilan Behbudiy hayot va ijod yo'llari qaytadan o'rganila boshladi. Mahmudxo'ja Behbudiyning tavallud topgan sanasi to'g'risida tarixiy dalillar bir birini inkor qilmoqda. Hoji Muin Behbudiyning tarjimaiy holini yozar ekan, uni 1875-yilning 19-yanvarida (hijriy 1291-yil 10-zulhijja) Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida diniy olim oilasida dunyoga kelganini ta'kidlaydi. Ammo oxirgi izlanishlarga nazar solsak, taniqli olim Sirojiddin Ahmedovning ta'kidlashicha, Mahmudxo'ja Behbudiy 1874-yil 30-yanvar payshanba kuni Samarqand shahrining Yomini mahallasida tavallud topgan. Olim bu sanani isboti deya yetarlicha dalil va isbotlarni keltiradi.

Hoji Muinning ma'lumot berishicha, Mahmudxo'ja Behbudiyning otasi Behbudxo'ja Solihxo'ja o'g'li turkistonlik, Ahmad Yassaviyning avlodlaridan, ona tomonidan bobosi Niyozxo'ja urganchlik bo'lib, amir Shohmurod hukmronlik qilgan davrda Samarqandga ko'chib kelgan. Behbudiy 6-7 yoshlarida tog'asi Muhammad Siddiq huzurida o'qib savod chiqaradi, otasidan esa Qur'ondan saboq oladi, qisqa muddatda qorilik martabasiga erishadi. Behbudiy 15 yoshga to'lganda yana bir tog'asi Mulla Odil mudarrislik qilgan madrasada tahsilini davom ettiradi va arab tili grammatikasi, aqida va shariat qonunlari bo'yicha bilimlarni kengaytiradi. 1893-yili onasi, 1894-yili esa otasi vafot etadi. Otasi vafotidan biroz avvol uylangan Behbudiy to'rt o'g'il, bir qiz ko'rgan. Behbudiyning maktab. Madrasa hayoti haqida ma'lumotlar juda ham kam. Sirojiddin Ahmedov bergan ma'lumotlarga ko'ra, Behbudiy dastlab Samarqand madrasasida, keyinroq Buxoro madrasalaridan birida tehsil olgan. 18 yoshga yetganida Behbudiy madrasa ta'limini tugatadi va Samarqand viloyati Chashmaob (Chashmai ob ) volostida qozilik qilgan tog'asi Muhammad Siddiq qo'l ostida mirzalik lavozimida ishlay boshlaydi. Tog'asi huzurida ikki yillik faoliyat, tog'asi qozilikdan bo'shaganidan keyin Kobud volosti qozisi Mulla Zubayr Yaxshiboy o'g'li qo'lida mirzalik ishini davom ettirishi uning dunyoqarashi va kelajak faoliyatida kata o'zgarish yasaydi. U shariat qonunlarini puxta o'zlashtiradi va mufti lavozimini egallaydi. 1916-yilgacha muftiylik faoliyati bilan muntazam shug'illanadi. Bu orada qizqa vaqt

qozi vazifasini ham bajargan, ammo ma'rifatparvarilik ishlariga berilish, xususan, matbaachilik bilan shug'illanish katta mehnat va mablag' talab qilgani bois Behbudiy qozilikdan voz kechib, muftiylikning yonida tijorat bilan shug'illanishga majbur bo'lgan. Mahmudxo'ja Behbudiy 1893-yildan Rossiya va xorijiy mamlakatlarda nashr etiluvchi turkey va forsiy matbuot bilan tanishib borgan. Zamon ahvoli, bo'lib turgan ijtimoiy va siyosiy voqealar, turli yangiliklarni kuzatdi. 1899-1900- yillarda Behbudiy buxorolik do'sti Hoji Baqo bilan haj safariga chiqdi. Bu sayohat, dunyo ko'rish, kezish izsiz ketmadi. Sayohat Behbudiyning dunyoqarashini, keying faoliyatini tubdan o'zgartirib yubordi. Bu sayohat uning hayot yo'lida, kelajakda bo'ladigon hodisalar, yangiliklarni boshlab berdi. Behbudiy Turkiston xalqlari turmushidagi qoloqlik, abgor ijtimoiy ahvol "jaholat uyi" ga aylangan maktab va madrasa borasidagi qarashlarini tomomila o'zgartirib yubordi. Adib Holidning ta'kidlashicha,, Behbudiy ayni shu sayohat davomida Usmoniylar davlati hamda Misrda xalq ta'limi sohasida amalga oshirilayotgan islohatlar va yangiliklarni kuzatish borasida ijtimoiy sohadagi islohatlarda yetakchilik qilgan shaxlar bilan muloqat qilish imkoniga ega bo'lgan. Oradan 8 oy vaqt o'tib, u Samarqandga qaytishi bilan "Tarjimon" gazetasiga obuna bo'ladi. U ham jadidchilik harakatining tamal toshi bo'lgan maktab islohatiga qattiq kirishdi. Uning tashabbusi va g'ayrati bilan 1903-yilda Samarqand atrofidagi Halvoyi (S.Siddiqiy), Rajabamin (A.Shakuriy) qishloqlarida yangi maktablar tashkil qilindi. Adib ushbu maktablar uchun darsiklar tuzishga kirishadi. Ketma-ket uning "Risolayi asbobi savod" (1904), "Risolayi jug'rofiyayi umroniy" (1905), "Risolayi jug'rofiyayi Rusiy" (1905), "Kitobatul atfol" (1908), "Amaliyoti islom" (1908), "Tarixi islom" (1909) kabi kitoblari paydo bo'ldi.

Mahmudxo'ja Behbudiy 1903-1904- yillarda Moskva, Peterburgga boradi, 1906-yilda Qozon, Ufa, Nijniy Novgorodda bo'ladi. Bular sayohat emas, xizmat safari edi. Masalan, Nijniy Novgorodda 1906-yilning 23-avgustida Rossiya musulmonlarining turmush va madaniyati muammolariga bag'ishlangan quriltoy chaqiriladi. Behbudiy ushbu syezdda turkistonlik vakillarning boshlig'i sifatida qatnashdi va Turkistondagi vaziyat va musulmonlar ahvoli borasida kata nutq

so'zlaydi. Behbudiy 1913-yili "Samarqand" gazetasini nashr qilish uchun hukumatdan ruxsat oldi. Gazeta o'zbek va tojik tillarida, haftada 2 marta chop etildi. 45-soni chiqqach, moddiy tanqislik tufayli nashr to'xtatdi. 1913-yil 20-avgustdan u "Oyina" jurnali chiqara boshladi. Haftalik, suratli bu jurnal, asosan, o'zbekcha bo'lib, she'r, turli yo'nalish va mavzudagi maqola, tahliliy materiallardan tashqari e'lonlar ham berib borgan. Jurnal Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg'oniston, Hindiston, Turkiyagacha tarqaldi. "Oyina" jurnalida millat va uning haq-huquqiga, tarixiga, til va adabiyot masalalariga, dunyo ahvoliga doir qiziqarli maqolalar, bahslar berib borilgan. Behbudiy millatning taraqqiysi uchun bir necha til bilishni shart hisobladi. Jurnalning birinchi sonidayoq "Ikki emas, to'rt til lozim" nomli maqola bilan chiqib, o'zbek, tojik, arab, rus va fransuz tilini bilish shart deb hisoblaydi.

Behbudiy sog'ligi bilan bo'lgan muammolarga qaramay sayohatga chiqish qaroriga keldi. Bu sayohat uning uchun bu davrda noshirlik va gazetachilik ishlaridan biroz chalg'ish va, eng asosiysi, dunyo ishlari, bo'layotgan voqea-hodisalarni yaqindan ta'qib etish istagi kuchli edi. Ikkinchidan, "Behbudiya kutubxonasi" uchun Istanbul, Misr, Qrim, Kavkaz, Qozon, Rossiya va boshqa xorijiy mamalatlardan ularning tarixi, geografiyasi, aholisi, olimlari va boshqa foydali ma'lumotlar, kitoblar kerak edi.

Behbudiy ijtimoy-siyosiy ishlarga qizg'in qo'shildi. Aslida bu faoliyat 1906-yildan boshlangan. Shu yili "Rusiya musulmonlari ittifoqi" ning Nijniy Novgorodda o'tkazilgan quriltoyda qatnashgan edi. Vatan taqdiri kun tartibiga qo'yilgan 1917-yilning 16-23-apreilda Toshkentda bo'lib o'tgan Turkiston musulmonlarining 150 vakili ishtirok etgan o'lka quriltoyida hayajonli nutq so'zladi. Millatni o'zaro ixtiloflardan voz kechishga, buyuk maqsad yo'lida birlashishga, ittifoq bo'lishga chaqirdi. 1917-yil 26-noyabrda Qo'qonda o'lka musulmonlarning IV favqulodda quriltoyi ish boshladi. Behbudiy shu quriltoyda o'lka musulmonlar sho'rosining raisi etib saylandi. 27-noyabrga o'tar kechasi "Turkiston muxtoriyati" e'lon qilindi. Bu mustamlakadan mustaqillik tomon qo'yilgan jiddiy va jasoratli qadam edi. Uning ma'naviy otasi, shubhasiz, behbudiy

edi. “27-noyabrda Qo’qonda Turkiston muxtoriyati umumiy musulmon syezdida e’lon qilindi. Muborak va xayrli bo’lsun! Kamina ham majlisda bo’lushdan iftixor etaman. Yashasun Turkiston muxtoriyati!”- deb yozgan edi Behbudiy. Biroq u Sovetlar tomonidan xoinona bostirildi. 19–20 fevral kunlari shahar to’pga tutildi. 10 ming turkistonlik o’ldirildi, 180 qishloqqa o’t qo’yildi.

Behbudiy iztirob bilan Samarqandga qaytadi. U yerda tura olmay, Toshkentga keladi. Turkiston rus sovet hukumati rahbarlari bilan muzokara olib borishga urinadi. Tabiiyki, muzokaralar natija bermaydi. Millatni, milliy taraqqiyotni inkor etgan sho’rolar yo’li aldov va zo’ravonlikka asoslanganini bilardi. Shuning uchun ham uni 1906 yildayoq aql va shariatga zid deb e’lon qilgan edi. Orzulari chil-chil bo’lgan Behbudiy 1919 yilning bahorida, 25 martda parishon holda yo’lga chiqadi va Shahrisabzda qo’lga olinib, taxminan ikki oy o’tgach, Qarshiga keltirib zindonga tashlandi. Bir necha kundan so’ng Qarshi begi Tog’aybekning buyrug’i bilan zindon yaqinidagi “podsholik chorbog’i”da o’ldirilgan. Uning qatli haqidagi xabar o’sha paytdagi poytaxtimiz Samarqandga rosa bir yildan keyin ma’lum bo’ldi. 1920 yilning aprelida butun Turkiston motam tutdi. 1926–27 yillarda, 11 yil Qarshi shahri Behbudiy nomi bilan yuritildi. Adibning nomini adabiy lashtirilishi shunchaki bir niqob edi, uning asl qiyofasi xalqdan sir saqlandi. Qarshi shahriga uning nomi qo’yilgan o’sha 1926 yildayoq jadidchilikni aksilinqilobiy, aksilsho’raviy harakat sifatida qoralash kampaniyasi boshlab yuborilgan edi.

Xulosa qilib aytganda , Behbudiy bu qadim otalar yurtini va unda yashab turgan barcha qon-qarindoshlar millatlarning birligi, hamkorligi bilangina saqlab qolish mumkinligini teran anglaydi. U musulmonlar orasidagi har qanday ixtilofga qarshi chiqadi. Jadidlar qurgan ilk demokratik davlat- Turkiston muxtoriyatining taqdiri hal bo’layotgan bir paytda butun vujudi bilan Turkistonni birlikka chorlaydi.

Bugun Behbudiy kabilar muqaddas tutgan yurt ozod va mustaqil bo'ldi. Ular jon fido etgan istiqlol avlodlariga nasib etdi. Millat va Vatan mustaqilligi yo'lida fido bo'lganlar esa shu Millat va Vatan umri qadar boqiydirlar.

**Foydalangan adabiyotlar:**

1. Jadidlar. Mahmudxo'ja Behbudiy . Yoshlar Nashriyoti Uyi. Toshkent-2022y.
2. Mahmudxo'ja Behbudiy, "Zabarjad Media" , Toshkent-2022y.
3. Bilimlar.uz.